ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

KLASTERLASH ORQALI SUBYEKTLARNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Qarshi Xalqaro universiteti
“Iqtisodiyot va muhandislik” kafedrasi dotsenti Rahimov Odil Berdiyevich
(odilrahimov.74@gmail.com, tel: +998881107479)

Annotatsiya*: Maqolada klasterlash asosida iqtisodiy subyektlarni rivojlantirishning asosiy omillari tahlil qilingan. Klasterlash orqali rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko‘rsatilib, har bir bosqichda o‘ziga xos strategik yo‘nalishlar yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy taraqqiyot sharoitida iqtisodiy klasterlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillar va ularning amaliy ahamiyati bayon etilgan.*
Kalit so‘zlar: klaster, klasterlash, potensial, marketing, eksport, logistika, investitsiya, yashil energiya, yashil texnologiyalar, yashil iqtisodiyot.
Аннотация: *В статье проанализированы основные факторы развития экономических субъектов на основе кластеризации. Показано, что процесс развития через кластеризацию состоит из последовательных этапов, на каждом из которых раскрываются собственные стратегические направления. Кроме того, изложены важнейшие основы, способствующие повышению эффективности экономических кластеров в условиях современного развития, а также их практическое значение.*
Ключевые слова: *кластер, кластеризация, потенциал, маркетинг, экспорт, логистика, инвестиции, зелёная энергия, зелёные технологии, зелёная экономика.*
Abstrakt: *The article analyzes the main factors for developing economic entities based on clustering. It shows that the process of development through clustering consists of consecutive stages, each with its own strategic directions. In addition, the paper outlines the key foundations that enhance the efficiency of economic clusters in the context of modern development and their practical importance.*
Keywords: *cluster, clustering, potential, marketing, export, logistics, investment, green energy, green technologies, green economy.*

Klasterlash orqali subyektlarni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari- subyektlar o‘rtasida bilimlar almashinuvi va texnologiyalarni tezroq qo‘llash imkonini beradi, bu esa, ularning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Globallashuv sharoitida xalqaro bozorlarda raqobat qilishni istagan kompaniyalar uchun muhimdir. Klasterlash orqali resurslardan birgalikda foydalanish mumkin bo‘lib, bu xarajatlarni kamaytiradi hamda subyektlarning samaradorligini oshiradi. O‘z navbatida, bu klasterlar moliyaviy barqarorlikka erishishiga yordam beradi va turli sohalar vakillarining yaqin hamkorligi innovatsiyalari uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu omillar subyektlar orasida yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish uchun tezkor muhitni ta’minlaydi.

Shuningdek, klasterlash yangi ish o‘rinlari yaratishda va hududiy iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu mahalliy darajada iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shadi, investitsiyalarning jalb qilinishini yengillashtiradi. Chunki rivojlangan klasterlar, ko‘pincha, xorijiy investitsiyalar uchun jozibador hisoblanadi. Bu mahalliy iqtisodiyotga xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga xizmat qiladi. Klasterlash jarayonida tashkil etiladigan o‘quv dasturlari va malaka oshirish kurslari subyektlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

Bu nafaqat o‘z xodimlari, balki hududdagi umumiy kadrlar bazasining rivojlanishiga olib keladi hamda mahalliy iqtisodiyotga turtki beradi. Chunki ular o‘z atrofidagi kichik va o‘rta bizneslarni rivojlantiradi, shu bilan birga, hududiy iqtisodiyotni barqarorlashtiradi. Bu ayniqsa, iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari cheklangan mintaqalarda juda dolzarbdir. Bundan tashqari, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza ishlab chiqarish usullarini qo‘llash osonlashadi. Bu esa, uzoq muddatli ekologik barqarorlikka erishishga xizmat qiladi hamda jamiyatga ijobiy ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu jihatlar klasterlashning nafaqat hududiy, balki milliy iqtisodiyot uchun ham dolzarb va muhim ekanligini ko‘rsatadi. Klasterlash jarayoni resurslarni birlashtirish, malakali kadrlarni tayyorlash va innovatsiyalarni tezroq amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik hamda ijtimoiy farovonlikka erishishga yordam beradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: “Klaster” tushunchasi XX asrning 80-yillarida Maykl Porter tomonidan iqtisodiy tushuncha sifatida ilmiy jarayonga kiritilgan. Porterning ta‘kidlashicha, klaster – ma‘lum sohalarda faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniya va institutlarning jug‘rofiy jihatdan tarmoqlararo birlashuvi[1] hisoblanadi. Bu ta’rif 1990-yilda Maykl Porter tomonidan tayyorlangan “Davlatlarning raqobatdosh afzalligi” nomli asarida keltirilgan. Demak, klaster – o‘zaro bog‘liq korxonalarni birlashtirishning bir usuli bo‘lib, bu hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Tashkillashtirish jihatidan, klaster – vertikal ravishda integratsiyalashgan tuzilmadir.

2005-yillarda iqtisodchi olimlar – A.Rasulev, R.Alimov, D.Kurbanovalarning “O‘zbekistonda paxtachilik kompleksini rivojlantirishda klaster iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlari” [2] maqolasida mamlakatda klasterlarni rivojlantirish asoslari yoritilgan.

Journal of Management (“Value & Ethics” Gwalior Management Academy. India ISSN-2249-9512, 2022 November Special Issue Page: 222-236 (08.00.00; №6)) jurnalida chop etilgan mualliflar Rahimov Odil Berdievich, Mukhitdinov Khudayar Suyunovichning “Kashkadarya provinceactivity of economic subjects econometric modeling of inter-territorial clustering” maqolasida subyektlarni hududlarda klasterlashni ekonometrik modellashtirish masalasini hamda “Экономика и предпринимательство” (научный журнал, 2024 г №1 (162), ISSN 1999-2300, Журнал включен в Перечень ВАКа РФ, стр.673-676.) ilmiy jurnalida chop qilingan muallif O.B.Rahimovning “Econometric model of interterritorial clustering of economic subjects” maqolasida iqtisodiy subyektlarni klasterlashni ekonometrik modellari o‘rganilgan.

Tadqiqot metodlari: Iqtisodiy tahlillar.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, klasterlarni strategik rivojlantirish va boshqarishni ekonometrik modellashtirish quyidagilarga asoslanib amalga oshiriladi:

– sanoat va ishlab chiqarishni optimallashtirish;

– hudud potensialidan foydalanish samaradorligini oshirish;

– ko‘p omilli ekonometrik modellarni qurish;

– ishlab chiqarish iqtisodiy o‘sish dinamikasini prognozlash.

[1] Porter M. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 1998 // http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-11

Klasterlash orqali subyektlarni rivojlantirishda, asosiy strategik yo‘nalishlar, asosan, resurslarni optimallashtirish va o‘zaro hamkorlikni oshirish bo‘lib, bir xil yoki o‘xshash sohadagi subyektlarni birlashtirish resurslardan unumli foydalanishga yordam beradi. Bu jarayon:

- birinchidan, resurslarning umumiy foydalanilish xarajatlarini kamaytiradi, foydani oshiradi va yashil energiya hamda texnologik yangiliklarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi;

- turli subyektlar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik innovatsiyalarni tez hamda samarali qo‘llash uchun zamin yaratadi. Bu yondashuv yangi mahsulotlar yoki xizmatlarni joriy etishni va texnologik yechimlarni rivojlantirishni tezlashtiradi;

- xalqaro hamkorlikni hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh subyektlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Eksport imkoniyatlarini oshirish, texnika va exnologik almashinuvini yo‘lga qo‘yish bilan xorijiy bozorlar uchun zarur sifatli mahsulotlarni taklif qilish mumkin;

- logistika, transport va ta’minot tizimini samarali boshqaradi. Birlashgan subyektlar o‘rtasida logistika, ta’minot va xomashyo yetkazib berish jarayonini optimallashtirish osonlashadi. Bu har bir subyektning jadal samaradorligini oshiradi;

- kadrlar tayyorlash, subyektlar o‘rtasida malakali kadrlar almashinuvi hamda ularni o‘qitish, o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratiladi. Barqaror rivojlanishga yo‘naltiradi, ekologik toza, yashil texnologiyalar asosida va barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirishga ham imkon beradi. Bu yo‘nalishda yashil texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish kabi choralar ko‘riladi.

Bu esa, raqobatbardoshlikni oshirish, mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun klaster doirasida maxsus marketing strategiyalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish subyektlar o‘rtasidagi raqobatni oshiradi, hamkorlikni kuchaytiradi va hudud yoki mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi.

Klasterlashning strategik yo‘nalishlari sifatida – resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, innovatsion muhit yaratish, logistika samaradorligi, xalqaro hamkorlik, kadrlarni tayyorlash, barqaror rivojlanish hamda raqobatbardoshlikni oshirish kabi jarayonlarni keltirish mumkin.

Natija va muhokamalar: Klasterlash orqali subyektlarni rivojlantirish jarayoni ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichda o‘ziga xos strategik yo‘nalishlar mavjud:

1) Tahlil qilish va baholash bosqichi, imkoniyatlarini aniqlash uchun hududiy sharoitlar, mavjud resurslar, mavjud infratuzilma va iqtisodiy muhit tahlil qilinadi. Potensial subyektlarni aniqlash, klasterda qatnashishi mumkin bo‘lgan korxonalar va ularning resurslari, mutaxassislari hamda bilim bazasi baholanadi. Raqobat va hamkorlik imkoniyatlarini o‘rganish orqali, boshqa klasterlar bilan raqobat qilish yoki hamkorlik qilish imkoniyatlari o‘rganiladi;

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

2) Strategik rejalashtirish bosqichi, klasterning umumiy vazifasi, asosiy maqsadlari va kelajakdagi rivojlanish bosqichlari ishlab chiqiladi. Maqsad hamda strategiyalarni belgilaydi, har bir bosqich uchun maqsadlar, ularga erishish yo‘llari va strategiyalar aniqlanadi, masalan, eksport salohiyatini oshirish kabi. Tashkil etish va huquqiy asos bo‘lib, klasterning huquqiy maqomini aniqlash, tashkilot tuzilmasini va boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat;

3)Infratuzilma va resurslarni jalb qilish bosqichi, resurslarni birlashtirish, klasterning moliyaviy, insoniy va texnik resurslarini to‘plash hamda birlashtirish, zarur infratuzilmani tashkil qilish zarur. Investitsiya va grantlarni jalb qilish, investitsiyalar, davlat grantlari, xalqaro tashkilotlar yordamidan foydalanish va resurslarni jalb qilish, ta’lim va malaka oshirish, xodimlar malakasini oshirish, yangi texnologiyalar hamda metodlarni o‘rganish uchun treninglar tashkil etishdan iborat;

4) Faoliyatni tashkil etish va boshqarish bosqichi, ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatish tizimi, subyektlar o‘rtasida samarali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimini tashkil etish. Logistika va ta’minot tizimini tashkil qilish, xomashyo yetkazib berish hamda mahsulotni sotish jarayonlarini optimallashtirish uchun infratuzilmani yo‘lga qo‘yishdan iborat. Bu esa, hamkorlikni rivojlantirish, klaster ichida hamkorlikni mustahkamlash, resurslar almashinuvi va bilimlarni o‘rtoqlashishni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi;

5) Marketing bosqichi, raqobatbardosh klasterlarni rivojlantirish hamda mahalliy, xalqaro bozorlarda tanitish, bozorni tadqiq qilish va sotuvni kengaytirish, bozor tahlillari asosida klaster mahsulotlari hamda xizmatlarini keng ko‘lamda sotishni yo‘lga qo‘yish, marketing strategiyalari ishlab chiqish, eksport va ichki bozor uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish hamda mahsulotlar yetkazib berishni tashkil qilishdan iborat;

6) Monitoring va tahlil qilish bosqichi, faoliyatni nazorat qilish - klaster ish faoliyatini nazorat qilish hamda har bir bosqichda bajarilgan ishlarni tahlil qilish bo‘lib, klasterning samaradorligini baholash, rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qilish va xulosalar tayyorlash, monitoring natijalariga ko‘ra strategik rejalarga o‘zgartirishlar kiritish, samaradorlikni oshirish uchun yangi yo‘nalishlarni aniqlash zarur. Ushbu bosqichlar orqali klasterlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi va subyektlar samarali rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon hududiy hamda iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar : Xulosa qiladigan bo‘lsak, subyektlarni klasterlash strategiyalari iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni targ‘ib qilish va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday omillarni qo‘llash jarayonida klaster ichidagi subyektlarni aniq maqsadlar asosida guruhlash, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish maqsad qilinadi. Quyidagi asosiy xulosalar klasterlash strategiyalarining samaradorligini ta’minlaydi. Klasterlash strategiyasi mintaqaning iqtisodiy, geografik va sanoat xususiyatlariga mos ravishda tanlangan bo‘lishi zarur. Maqsadli sohalarni aniq belgilash orqali klaster ichidagi subyektlarning imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va ular uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Subyektlarni klasterlash jarayonida innovatsion infratuzilma, laboratoriyalar va texnologik parklar tashkil etilishi talab qilinadi. Bu klaster a’zolarining o‘zaro aloqada bo‘lishiga, bilim va texnologiyalar almashinishiga ko‘maklashadi. Strategiya subyektlarni faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki ilmiy jihatdan ham birlashtirishga yo‘naltirishi lozim. Bu esa, universitetlar, tadqiqot markazlari va sanoat korxonalarining hamkorlikda ishlashiga hamda ilmiy tadqiqotlarni tezroq tijoratlashtirishga imkon yaratadi. Klasterlar ichidagi subyektlarni xalqaro hamkorlikka jalb qilish orqali xorijiy tajriba va texnologiyalarni mintaqaga olib kelish, shu orqali innovatsion rivojlanishga turtki berish strategiyaning

muhim qismi hisoblanadi. Bu mahalliy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga yordam beradi. Klasterlashda ekologik barqarorlik tamoyillarini kiritish – atrof-muhitni asrash, resurslardan oqilona va samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash, yashil energiyalarga o‘tish hamda unumli foydalanish, yashil iqtisodiyotga o‘tish orqali mintaqaviy rivojlanishni barqaror qilishga xizmat qiladi. Klaster ichidagi subyektlarga imtiyozlar va rag‘batlar berish orqali ular innovatsion loyihalarga jalb qilinadi. Soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar bilan qo‘llab-quvvatlash klasterni yanada mustahkamlaydi va yangi subyektlarni jalb qilish imkonini beradi. Klasterlash strategiyasining muvaffaqiyati mintaqada ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini yaxshilash, texnologik taraqqiyotni tezlashtirish hamda raqobatbardosh mahsulot yaratishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Shu tariqa, klasterlar orqali iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirish va innovatsiyalarni yanada kengroq qo‘llashga erishiladi.

Adabiyotlar:

1.Porter M. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 1998 // http: //hbr. org/ product/ clusters – and – the – new – economics – of -competition/ an/ 98609-PDF-ENG.

2.Rahimov Odil Berdievich, Mukhitdinov Khudayar Suyunovich. Kashkadarya provinceactivity of economic subjects econometric modeling of inter-territorial clustering // OAK Journal of Management “Value & Ethics” Gwalior Management Academy. India ISSN-2249-9512, 2022 November Special Issue Page: 222-236 (08.00.00; №6).

3.Rahimov Odil. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni klasterlashni ekonometrik modellashtirish // Biznes Ekspert. – T.: Бизнес-Daily Media, 2022. 11-12 (179-180)-son. – B. 63-66.

4.О.Б.Рахимов. Econometric model of interterritorial clustering of economic subjects.// “Экономика и предпринимательство” научный журнал, 2024 г №1 (162), ISSN 1999-2300, Журнал включен в Перечень ВАКа РФ, стр.673-676.

5. Yaxshiyeva. Historical reality and its artistic interpretation. Neuroquantoiogy| november, 2022/11. 2510-2513.India.

6. Y.Z. Rashidovna. Activities Of Female Scientists, Scholars In The Research Of Timur Studies: Chronology And Education. Ustozlar uchun 1 (1), 217-220.2025.

7. Y.Z. Rashidovna. .Ingliz Va O’zbek Temurshunosligi Tadriji Va Taraqqiyoti. Hamkor konferensiyalar 1 (14), 1124-1127.2025.

8. Z Yaxshiyeva. Amir Temur Istilolari: Qarashlar, Izlanishlar Va Yondashuvlar. tamaddun nuri jurnali 2 (65), 338-342.2025.

9. YZ Rashidovna. S Tudies Of The Image Tamurlaine In The Field Of Russian Oriental Studies. scientific approach to the modern education system 3 (32), 4-6. 2025.

10. Aliqulova D.B. Ferdinand Dyushen romanlari syujetida psixologik tasvir tipologiyasi. O‘zbekiston milliy axborot agentligi O‘Za Ilm-fan bo‘limi elektron jurnali (OAK) 2025-yil 2-son

11. Aliqulova D.B. Erkin Vohidovning “Ruhlar Isyoni” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Central Asian Academic Journal of Scientific Research 38-41 bet. (2025).

12. Aliqulova D.B. Expression Of Sentimentalism In The Works Of Olmas Umarbekov. International Journal of Artificial Intelligence. (2025).

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

13. Aliqulova D.B. Reflection of the national vision of the world in phraseological units. Linguistics and Culture Review, 5(S2), 1281-1290. https://doi.org/10.21744/lingcure.v5nS2.1799 (2021).

14. Aliqulova D.B. F.Dyushen ijodida ayol obrazi tasviri. «Sharq-u G‘arb: Navoiv va Gyote» mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari (2023).

1. Драматическая мистерия Байрона “Каин” (по мотивам Библии и Корана). Международная заочная научная конференция. Современная филология. (Апрел -2011. г. Уфа 100-103 стр).
2. “Руссо и Байрон”. Молодой учённый Ежемесячный научный журнал. (№8 (19) Том II 2010 г, г. Чита. Стр 65-67).
3. The portrait of the image of Manfred in the translation of J.G. Byron’s poem “manfred” “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnal. (2025-yil, iyun, №6-son (953-957).
4. G.G.Bayronning “Manfred” poemasi tarjimasida Manfred obrazining qayta yaratilishi. The re-creation of the character of Manfred in the translation of G.G.Byron’s poem “Manfred” . TURON SCIENCES ilmiy jurnali. 2024-yil 1 –son, (35-40).

5. СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДРАМ «КАИН» ДЖ. БАЙРОНА И «МЯТЕЖ ЧЕРТА ПРОТИВ БОГА» А. ФИТРАТА. Гуманитарные науки. Филология и искусствоведение. УДК 821.512.133 2012-yil ,(262-267).

6. Ж.Байроннинг “Шилйон тутқини” поэмаси таржимасида вазн, ритм ўзгаришлари Тил ва адабиёт таълими. Ўзбекистон Республикаси халқ таълими вазирлигининг илмий-методик журнали (2014), (45-47).

7. Safaraliyevich, Y.A. Elements of nature “Earth”, “Air” and ”Fire”: Similarities and Differences in English and Uzbek linguacultures. Germany international journals (GIJ) 2025, 181-185.

8. Safaraliyevich, Y. A. Semantic Group "Elements of Nature" In English and Uzbek Linguocultures. AJLLLSE 2024, 2, (45-47).